

YEVROPA XAVFSIZLIK VA HAMKORLIK TASHKILOTINING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATI

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi 2-bosqich kursanti
Norboyev Oybek Baxtiyor o'g'li
oybeknorboyev700@gmail.com*

Аннотация: В данной статье представлена информация об Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе, которая является одной из крупнейших организаций по безопасности в мире. Эффективная деятельность независимой организации отражена в ее задачах, ее месте в мировом сообществе, выраженных позициях политиками многих развитых стран по отношению к этой организации.

Ключевые слова: Организация безопасности и сотрудничества в Европе, Бюро, Мировое общество, Советское сотрудничество

Annotation: This article provides information about the Organization for Security and Cooperation in Europe, which is one of the largest security organizations in the world. The effective activity of the independent organization is reflected in its tasks, its place in the world community, and the attitudes expressed by the politicians of many developed countries towards this organization.

Key words: Organization for Security and Cooperation in Europe, Bureau, World Community, Cooperation Council

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoda xavfsizlikni ta'minlovchi yirik tashkilotlardan biri bo'lgan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti haqida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar muallif fikri bilan keng boyitilgan bo'lib, tashkilotning xalqaro miqyosdagi faoliyatini yoritib beradi. Uch mintaqa davlatlari bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan tashkilotning samarali faoliyati uning vazifalarida, jahon hamjamiyatidagi o'rnida, ko'pgina rivojlangan davlatlar siyosatchilarining ushbu tashkilotga nisbatan bildirayotgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Maqola tashkilotning tashkil etilishi, faoliyati va vazifalarini keng yoritganligi bilan izohlanadi

Kalit so'zlar: Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, byuro, jahon hamjamiyati, hamkorlik bo'yicha kengash

Bugungi kunda davlatlar o'rtasida hamkorlikni va xavfsizlikni ta'minlashga va rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda. Dunyo bo'yicha uch mintaqa davlatlarini o'z ichiga olgan tashkilotlardan biri Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotidir. Bu tuzilma SSSRning parchalanishi va "Sovuq

urush"ning tugashi bilan xalqaro tashkilot sifatida yuzaga keladi. Umuman olganda, tashkilotlar ma'lum bir sabab va maqsadlar asosida tashkil etiladi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining tashkil etilishidan maqsad uch mintaqa davlatlarini birlashtirish va xalqaro xavfsizlik hamda hamkorlik ishlarini olib borish bo'lgan. "Sovuq urush"ning tugashi esa tashkilotning tashkil etilishiga oid sabablardan biri sifatida namoyon bo'lgan. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti dastavval AQSh va Kanada davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini o'rnatish yo'li bilan tashkil etilgan.

Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti – davlatlar o'rtasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va ularning rivojlanish tamoyillarini belgilab beruvchi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. Dastlab AQSh va Kanada ishtirokida Umumyevropa Kengashi sifatida faoliyat ko'rsatib, "Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengash" nomi bilan atalgan. Tashkilotning yaratilishiga bo'lib o'tgan bir qancha uchrashuvlar va bu asosda imzolangan hujjatlar sabab bo'lgan. Shu jumladan, 1973-yil iyul oyida bo'lib o'tgan 33 davlat tashqi ishlar vazirlari ishtirokidagi uchrashuv, 1975-yil 30-iyul - 1-avgustdagi Xelsinki yakuniy akti, 1990-yil 21-noyabrdagi Parij xartiyasi va 1995-yil yanvar oyidagi uchrashuvlar Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining tashkil etilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dastlab kengash sifatida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa, Yevropada yuz bergan jarayonlar, "Sovuq urush"ning tugashi natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar Kengashning Tashkilot sifatida to'liq shakllanishiga olib keladi. Tashkilot haqida fikrimizni keng ma'noda ta'riflab, uning rivojlanish tarixi hamda yurtimiz bilan aloqalari haqida fikr yuritsak, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) — davlatlar o'rtasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va ularning rivojlanish tamoyillarini belgilab beruvchi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. Dastlab umum Yevropa kengashi (AQSh va Kanada ishtirokida) sifatida faoliyat ko'rsatib Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengash nomi bilan atalgan (1973—91).

1973-yil 3—7-iyulda Helsinki shahrida kengashning 1-bosqich (Yevropadagi 33 davlat tashqi ishlar vazirlari ishtirokida), 1973-yil 18-sentabrdan 1975-yil 21-iyuligacha Jeneva shahrida 2-bosqich (35 davlat vakillari ishtirokida) va 1975-yil 30-iyuldan 1-avgustgacha Helsinki shahrida 3-bosqich (35 mamlakat siyosiy va davlat rahbarlari ishtirokida) uchrashuvlari bo'lgan. Pirovardida Yakunlovchi hujjat qabul qilinib, u Yevropada tinchlikni ta'minlashning muhim omiliga aylangan. Kengashning Madrid konferensiyasi (1991-yil aprel)da Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament assambleyasini tashkil etishga qaror qilindi (1991-yil iyulda ta'sis etilgan). Yevropada yuz bergan jarayonlar, „sovuq urush“ning

tugashi natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar kengashning tashkilot sifatida to'liq shakllanishiga olib keldi.

Yevropa xavfsizlik va hamkorliktashkilotiga 54 davlat a'zo (2002-yil yanvar). Tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari 2 yilda bir marta oliy darajada uchrashuv o'tkazadilar. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbul shahrida bo'lgan sammitida (1999-yil 18—19 noyabr) Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning 21-asrdagi yangi tamoyillari belgilandi. Tashkilotga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari har yili uchrashib turadilar (Vazirlar kengashi). Tashkilotning yana bir organi — Boshqaruvchi kengash har yili 3 marta Praga shahrida yig'iladi, bir marta iqtisodiy forum o'tkazadi. Muntazam ishlovchi doimiy kengashning majlislari haftada 1 marta bo'ladi. Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash, qurollanish ustidan nazorat masalalarini muhokama qiluvchi Xavfsizlik bo'yicha hamkorlik forumi mavjud. Uning majlislari ham har qaftada o'tadi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti qarorgohi Vena shahrida.

O'zbekiston 1992-yil 30-yanvarda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga qabul qilindi. Bu bilan O'zbekistonning Yevropa davlatlari, shuningdek, AQSh, Kanada bilan har tomonlama hamkorlik qilishiga yangi yo'l ochildi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining ko'plab tadbirlari orqali O'zbekiston rahbariyati xalqaro miqyosdagi tashabbuslarni, dunyoning dolzarb masalalariga munosabatini jahon hamjamiyati e'tiboriga havola qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenta I. Karimov Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Lissabon sammitida (1996-yil dekabr) mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' etkazib berishni to'xtatish, Istanbul sammitida (1999-yil noyabr) terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tuzish haqida taklif bilan chiqdi. O'zbekiston Yevropa xavfsizlik va hamkorliktashkiloti rahnamoligidagi ko'plab anjumanlarga mezbonlik qilib keladi. Toshkentda Yevropa xavfsizlik va hamkorliktashkilotining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar bo'yicha byurosi ish olib boradi.

So'nggi yillarda yurtimiz Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bilan din yoki e'tiqod erkinligi bo'yicha qator tadbirlarni tashkil etdi. Xususan, 2020-yil 14-oktyabrda xalqaro standartlar va YXHTning insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlarida belgilangan, barcha uchun din yoki e'tiqod erkinligi huquqining mohiyati, holati va qo'llash sohasiga oid ikki kunlik onlayn tadbir yakunlandi. Tadbirning ikkinchi kunida YXHT/ DIIHBning "Din yoki e'tiqod erkinligi va xavfsizlik: siyosat masalalari bo'yicha qo'llanma"si bo'yicha brifing bo'lib o'tdi. Ushbu taqdimot va brifing O'zbekiston hukumati vakillari uchun mo'ljallangan.

Taqdimot va brifing YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (EXHT/DIIHB), O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din

ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha milliy markazi bilan birgalikda tashkil etildi.

Tadbirning ochilishida, O'zbekiston Oliy Majlisi (Parlament) Qonunchilik palatasi raisining birinchi o'rinbosari va O'zbekiston Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz direktori Akmal Saidov; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining o'rinbosari Dilshod Eshnaev; YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori Jon MakGregor va YXHT/DIIBning Inson huquqlari bo'yicha bo'limi rahbari Andrea Xuber ishtirok etishdi.

Tadbirda xalqaro va milliy ekspertlar qatnashib, ular xalqaro standartlarda shuningdek, YXHT majburiyatlarida belgilangan asosiy parametrlarni, din yoki e'tiqod erkinligi huquqi bilan bog'liq xalqaro standartlarni, va ushbu masala doirasidagi ruxsat etilgan cheklovlarni muhokama qildilar. Shuningdek, ular YXHT/DIIBning "Din yoki e'tiqod erkinligi va xavfsizlik: siyosat masalalari bo'yicha qo'llanma"ning o'zbek tilidagi nushasini taqdim etib, ushbu hujjatda ko'rsatilgan to'rt asosiy mavzuni muhokama qildilar.

«O'zbekiston hukumati din yoki e'tiqod erkinligi sohasida muhim islohotlarni davom ettirar ekan, barchaning foydasi uchun, ushbu asosiy inson huquqini mustahkamlovchi siyosatni ishlab chiqishi, kerakli qonunlarni qabul qilishi va chora-tadbirlarni amalga oshirishi juda muhimdir. Shu bilan birga, bu umumiy xavfsizlik talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak», - deya ta'kidladi YXHT/DIIBning din yoki e'tiqod erkinligi bo'yicha katta maslahatchisi vazifasini bajaruvchi Nikolay Vzhechenkovskiy.

"So'nggi ikki kun ichida bo'lib o'tgan tadbirda faol ishtirok etib, O'zbekiston *Oliy Majlisi* (parlamenti) a'zolari va boshqa hukumat vakillari O'zbekiston xalqining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni yaratishdagi o'z roliga katta qiziqish bildirdilar", - dedi YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori Jon MakGregor. «O'zbekistondagi YXHT loyihalari koordinatori va DIIB, ahil oila bo'lib, O'zbekistondagi Inson Huquqlari Milliy Markazi va *Oliy Majlis* bilan hamkorlik qilishdan mamnunmiz. Shuningdek, hukumat rasmiylari va qonunchilik organlari vakillariga ekspertlar bilan din yoki e'tiqod erkinligi, shu jumladan tegishli xalqaro huquqiy majburiyatlar va YXHT majburiyatlari borasida dialog o'rnatish imkoniyatini yaratishdan mamnunmiz”.

Insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlari doirasida, YXHTning O'zbekistondagi Loyihalari koordinatori din yoki e'tiqod erkinligi borasida ayniqsa faoldir. Joriy yilning sentyabr oyida Loyihalar koordinatori "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo'yicha YXHT/DIIB va Venetsiya komissiyasining qo'shma huquqiy xulosasini tayyorlash uchun bir qator videokonferensiyalar o'tkazilishini qo'llab-quvvatladi. Videokonferensiyalarda O'zbekiston Respublikasi *Oliy Majlis* Qonunchilik palatasi, Din ishlari qo'mitasi, Adliya vazirligi vakillari, diniy va e'tiqodiy jamoalar vakillari, nodavlat tashkilotlari va xalqaro hamjamiyat vakillari ishtirok etdilar. Natijada, 2020-yil 12-oktyabrda bu qo'shma xulosa rasman e'lon qilindi, va u tez orada rus va o'zbek tillariga tarjima qilinadi.

Bugungi kunda ushbu tashkilot uch mintaqada davlatlarini o'z ichiga olgan 57ta davlat hamda 11ta hamkor tashkilot a'ziligiga erishgan dunyoning yetakchi tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Tashkilotning qarorgohi Avstriyaning Vena shahrida joylashgan bo'lib, rus, fransuz, nemis, ingliz, italyan, ispan kabi tillar ushbu tashkilotning rasmiy tillari hisoblanadi. Har bir tashkilot muayyan vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etiladi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining vazifalari quyidagi uchta asosiy o'lchov hisoblangan siyosiy birliklar faoliyatida yuzaga keladi.

- harbiy-siyosiy o'lchov
- atrof-muhit va ekologik o'lchov
- inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha o'lchov

Mamlakatimiz ham mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab bir qancha tashkilotlarga a'zo bo'la boshladi. Dunyo mamlakatlari bilan do'stlik va hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish asosiy o'rin egalladi. Davlatimiz 1992-yilning 30-yanvarida Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi. Bu tashkilotga a'zolik mamlakatimizning nafaqat AQSH va Kanada, balki bir qancha Yevropa davlatlari bilan har tomonlama hamkorlik qilishiga yo'l ochib berdi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining ko'plab tadbirlari orqali O'zbekiston rahbariyati xalqaro miqyosdagi tashabbuslarini, dunyoning dolzarb masalalariga munosabatini jahon hamjamiyati e'tiboriga havola qildi. Tashkilotning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini olib borishda O'zbekiston yetakchilik faoliyatini olib bordi. Bugungi kunda poytaxtimiz Toshkentda YXHTning "Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar byurosi" faoliyat yuritib kelmoqda.

Umuman olganda, YXHTning yetakchi tashkilotlardan biriga aylanishida SSSRning parchalanishi va shuning natijasida "Sovuq urush"ning tugashi va uch mintaqada davlatlarini o'z ichiga olganligi sabab bo'ladi. Uning faoliyati dunyoning asosiy jabhalari hisoblangan xavfsizlik va hamkorlik ishlarini olib borishidir. Tashkilot bugungi kunda tinchlikni ta'minlash faoliyati jihatdan samarali ishlarni olib bormoqda.

O'zbekiston ham tashkilotning a'zosi sifatida uning uchrashuvlarida va Markaziy Osiyo bilan aloqalarida faoliyatini samarakli namoyon etib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti dunyo miqyosida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlash borasidagi eng yirik va yetakchi xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlar bazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. <https://www.osce.org> butun jahon siyosiy tashkilotlar haqida ma'lumot
5. <http://www.ombudsman.uz/> O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti
6. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)